

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI

STATE SUPPORT MECHANISMS FOR THE ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS ENTITIES

¹Usmonova Zarina
Uchqun qizi,
²Butayev Javlonbek
Inotillo o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi,
²Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi, PhD.

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada kichik biznes subyektlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini, uning yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar hamda tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan institutsional chora-tadbirlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines the theoretical and practical aspects of state support mechanisms for the activities of small business entities. It highlights the role of small businesses in the national economy, emphasizing their contribution to gross domestic product (GDP), employment generation, and the enhancement of household incomes. Furthermore, the study analyzes government policies aimed at promoting small business development, including financial support mechanisms, tax incentives, subsidies, concessional lending, and institutional measures designed to foster entrepreneurship. Based on the research findings, practical recommendations are proposed to improve the system of state support for small business entities and to enhance their sustainable development and competitiveness.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ kichik biznes, tadbirkorlik, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari, iqtisodiy rivojlanish, bandlik, investitsiyalar, biznes muhiti, iqtisodiy islohotlar.

❖ small business, entrepreneurship, concessional loans, subsidies, tax incentives, economic development, employment, investments, business environment, economic reforms.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi

hisoblanadi. Kichik biznes subyektlari iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol

o'ynaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yuqori bo'lib, iqtisodiy barqarorlik va innovatsion rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi [4].

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ortiqcha ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada, kichik biznes subyektlarining soni va iqtisodiyotdagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda [2].

Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari faoliyatida moliyaviy resurslarning yetishmasligi, kredit mablag'laridan foydalanishdagi muammolar, raqobat muhitining kuchayishi hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq qator muammolar saqlanib qolmoqda. Mazkur holat kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, soliq preferensiyalari, kafillik mexanizmlari, biznes-inkubatorlar va raqamli xizmatlar orqali tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash amaliyoti keng qo'llanilmoqda. Biroq ushbu mexanizmlarning samaradorligini oshirish va xalqaro tajribalar asosida yangi qo'llab-quvvatlash instrumentlarini joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri bo'lib qolmoqda [3].

Mazkur tadqiqotning maqsadi kichik biznes subyektlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaldagi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni takomillashtirish

bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining zamonaviy iqtisodiy islohotlar sharoitida kompleks baholanishi hamda ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Amerikalik iqtisodchi Joseph Schumpeter tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholab, innovatsiyalar va yangi biznes tashabbuslari iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanligini ta'kidlagan [1]. Olimning fikricha, davlat tomonidan yaratiladigan qulay institutsional muhit tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

D. Storey o'z tadqiqotlarida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilib, moliyaviy yordam dasturlari, soliq imtiyozlari hamda biznes konsalting xizmatlari kichik korxonalar faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan [5].

F. Delmar esa kichik biznes rivojlanishida davlatning moliyaviy va institutsional ko'magini tahlil qilib, ayniqsa yangi tashkil etilgan korxonalarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy faollikni oshirish va bandlik darajasini yaxshilashga xizmat qilishini qayd etgan [6].

A.N. Asaul kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'rganib, davlat hamda xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri ekanligini ta'kidlagan [7].

Mahalliy olimlardan Q.X. Abdurahmonov tadbirkorlik va kichik biznesning milliy

iqtisodiyotdagi o'rnini tadqiq etib, ushbu sektorni rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash, daromadlarni oshirish hamda hududlarni kompleks rivojlantirishga xizmat qilishini asoslab bergan [8].

Shuningdek, Sh.Sh. Shodmonov kichik biznesni rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganib, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositasi ekanligini ta'kidlagan [9].

B. Xodiyev esa iqtisodiy islohotlar sharoitida kichik biznesni rivojlantirish masalalarini tadqiq qilib, imtiyozli kreditlash, soliq yengilliklari hamda investitsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini qayd etgan [10].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda kichik biznesni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning turli jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi iqtisodiy islohotlar, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar sharoitida ushbu masalani yanada chuqurroq tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli kichik biznes subyektlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaldagi holatini baholash va ularni takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda kichik biznes subyektlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini baholash va ularni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida ilmiy bilishning turli usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv,

iqtisodiy-statistik tahlil, mantiqiy fikrlash hamda umumlashtirish usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, iqtisodiy o'sish va bandlik masalalariga bag'ishlangan xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamda Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida kichik biznes subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashning amaldagi mexanizmlari, jumladan, imtiyozli kreditlash, subsidiyalar ajratish, soliq imtiyozlari berish, biznesni ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini soddalashtirish va tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilindi. Shuningdek, kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rne va rivojlanish dinamikasi statistik ko'rsatkichlar asosida baholandi.

Olingan natijalar asosida kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining mavjud afzalliklari va kamchiliklari aniqlandi hamda ushbu mexanizmlarni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Qo'llanilgan metodlar esa kichik biznes faoliyatini har tomonlama baholash hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Mamlakatda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, soliq yukini kamaytirish hamda biznes yuritish muhitini yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli

islohotlar amalga oshirildi. Natijada, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlikni ta'minlashdagi hissasi hamda iqtisodiy faollik darajasi sezilarli ravishda oshdi.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, soliq preferensiyalari, kafillik

mexanizmlari va raqamli xizmatlarning joriy etilishi yangi biznes subyektlari sonining ko'payishiga hamda mavjud korxonalar faoliyatining barqarorlashishiga xizmat qilmoqda [12].

Kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash maqsadida 2021-2025-yillarda ushbu sektorning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

***O'zbekistonda kichik biznes rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
(2021-2025-yillar holatiga ko'ra)***

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
<i>Kichik biznesning YAIMdagi ulushi (%)</i>	54,9	55,6	56,4	57,1	58,0
<i>Faol kichik biznes subyektlari soni (mingta)</i>	503	536	572	611	648
<i>Bandlikdagi ulushi (%)</i>	74,5	75,1	75,8	76,4	77,0
<i>Ajratilgan imtiyozli kreditlar (trln so'm)</i>	12,5	15,8	18,6	22,4	25,7
<i>Eksportdagi ulushi (%)</i>	27,3	29,1	31,8	33,4	35,2

*Mualliflar tomonidan Milliy statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank ma'lumotlari asosida tuzilgan [11; 12].

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2021-2025-yillar davomida kichik biznes sektorining rivojlanishida barqaror ijobiy dinamika kuzatilgan. Tahlil qilinayotgan davrda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 54,9 foizdan 58,0 foizga qadar oshgan. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatadi.


Shuningdek, faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari sonining 503 mingtadan 648 mingtaga yetgani mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun yaratilayotgan qulay institutsional va huquqiy muhit, ma'muriy tartib-taomillarning soddalashtirilishi hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan kompleks qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarining samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Mazkur o'sish kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi tobora ortib borayotganini hamda yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkil etilishi uchun zarur shart-sharoitlar izchil takomillashtirilayotganini tasdiqlaydi.

Bandlikdagi ulushning ortishi esa kichik biznesning yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish, mehnat bozoridagi muvozanatni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashdagi strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, imtiyozli kreditlash hajmining yildan-yilga ortib borishi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan. Moliyalashtirish manbalarining ko'payishi ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot assortimenti va sifatini oshirish hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy asosni yaratgan. Natijada kichik biznes subyektlarining eksport salohiyati izchil mustahkamlanib, eksportdagi ulushi 27,3 foizdan 35,2 foizgacha oshgan. Ushbu ko'rsatkich mahalliy korxonalarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligi ortib borayotganini, ularning eksport geografiyasi va mahsulot nomenklaturasi kengayayotganini

hamda davlat tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatning ijobiy natijalar berayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur tendensiya kichik biznesning mamlakat eksport salohiyatini


oshirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish va iqtisodiy o'sishning barqaror manbalarini shakllantirishdagi muhim o'rnini yaqqol ifodalaydi.



1-rasm. Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi¹

1-rasmda kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi aks ettirilgan. Mazkur mexanizmning asosiy maqsadi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Davlat tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlar va subsidiyalar tadbirkorlarning boshlang'ich kapitalga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kafillik va kompensatsiya mexanizmlarining qo'llanilishi kredit olish jarayonidagi tavakkalchiliklarni kamaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2021-2025-yillar davomida kichik biznes subyektlariga ajratilgan imtiyozli kreditlar hajmi muntazam oshib borgan [12]. Bu esa tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda qo'shimcha ish o'rinlarini tashkil etishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash natijasida kichik biznes subyektlarining investitsion faolligi ortib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmlari kengaygan.



2-rasm. Kichik biznesni institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmi²

2-rasmda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan soliq va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tasvirlangan. Ushbu mexanizmlar tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritish bilan bog'liq ma'muriy xarajatlarni


kamaytirishga qaratilgan. Soliq imtiyozlari korxonalar ixtiyorida qo'shimcha moliyaviy mablag'lar qolishini ta'minlaydi va ularni ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirish imkonini beradi.

¹Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida mualliflar ishlanmasi.

²Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida mualliflar ishlanmasi.

Bundan tashqari, biznesni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonlarining soddalashtirilishi hamda elektron davlat xizmatlarining joriy etilishi yangi tadbirkorlik subyektlari sonining ortishiga xizmat qilmoqda. Biznes-inkubatorlar va konsalting

markazlari esa yangi tashkil etilgan korxonalarga huquqiy, moliyaviy va marketing masalalarida amaliy yordam ko'rsatmoqda. Natijada, mamlakatda biznes yuritish muhiti yaxshilanib, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi o'rni tobora mustahkamlanmoqda.



3-rasm. Kichik biznes subyektlariga ajratilgan imtiyozli kreditlar hajmining dinamikasi³ (2021–2025-yillar)

3-rasm ma'lumotlari asosida tuzilgan ustunli diagramma kichik biznes subyektlariga ajratilgan imtiyozli kreditlar hajmining yildan-yilga oshib borayotganligini ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, 2021-yilda 12,5 trln so'mni tashkil etgan kreditlar hajmi 2025-yilga kelib 25,7 trln so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich qariyb ikki baravarga oshganligini anglatadi.

Mazkur holat davlat tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi. Kreditlash hajmining ortishi tadbirkorlarning investitsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirgan, yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qilgan hamda ishlab chiqarish hajmlarining o'sishini ta'minlagan [12]. Ayniqsa, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari ushbu moliyaviy resurslardan samarali foydalanib kelmoqda.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va institutsional mexanizmlari iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Biroq moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish hamda raqamli xizmatlar sifatini oshirish kelgusidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiyotining

³O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda Markaziy bankning rasmiy ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, biznes muhitini yaxshilash hamda investitsion faollikni oshirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada, kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini kengayib, uning bandlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish va bozor munosabatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ortib bormoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari yangi ish o'rinlarini yaratish, ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan ta'minlash hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, mazkur sektorning moslashuvchanligi va innovatsiyalarni tez joriy etish imkoniyati uning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Biroq tadqiqot natijalari kichik biznes rivojlanishida ayrim tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, kreditlash jarayonlarining murakkabligi, hududlarda biznes infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda tadbirkorlarning zamonaviy boshqaruv ko'nikmalariga bo'lgan ehtiyoji dolzarb masalalar sifatida saqlanib qolmoqda.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish va kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish jarayonlarini yanada soddalashtirish, davlat xizmatlarini

raqamlashtirish va ma'muriy tartib-taomillarni kamaytirish zarur. Bu yangi biznes tashabbuslarining rivojlanishiga hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Xususan, imtiyozli kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, mikromoliyalashtirish xizmatlarini rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarini kengaytirish korxonalarning barqaror faoliyat yuritishiga yordam beradi.

Uchinchidan, raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat imkoniyatlaridan samarali foydalanishni kengaytirish, kichik biznes subyektlarining zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish zarur. Bu tadbirkorlarning bozor imkoniyatlarini kengaytirib, ularning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Shuningdek, tadbirkorlarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, biznes boshqaruvi, innovatsiyalar hamda zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanish bo'yicha ta'lim dasturlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishlar kichik biznesning uzoq muddatli rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, moliyaviy va institutsional sharoitlarni yaxshilash hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirish O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. 255 p.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va biznes muhitini yaxshilash bo'yicha farmon va qarorlar to'plami*. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Hisobotlar. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumot <https://gov.uz>

4. Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. New York: Harper & Brothers, 1942. 381 p.

5. Storey D.J. Understanding the Small Business Sector. London: Routledge, 1994. 355 p.

6. Delmar F. Entrepreneurship and Small Business Development. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2006. 298 p.

7. Асаул А.Н. Организация предпринимательской деятельности. — Санкт-Петербург: АНО ИПЭВ, 2009. — 336 с.

8. Abdurahmonov Q.X. Tadbirkorlik faoliyati va kichik biznes asoslari: darslik. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. — 384 b.

9. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. — 728 b.

10. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Milliy iqtisodiyot: darslik. — Toshkent: IQTISODIYOT, 2022. — 512 b.

11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko'rsatkichlari bo'yicha statistik to'plam. Rasmiy statistika ma'lumotlari - stat.uz

12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati va bank tizimi faoliyati bo'yicha yillik hisobot. Toshkent, 2025.